



STENDALNING “QIZIL VA QORA” ASARIDA SIYOSIY ZIDDIYATLAR VA SHAXSIY ORZULAR TO’QNASHUVI

*Termiz Iqtisodiyot va Servis Universiteti
Pedagogika va Ijtimoiy gumanitar fanlar
fakulteti (o'zbek tili yo'nalishi) 3-bosqich
talabasi **Jalilova Shohida Ravshan qizi***

ANNOTATSIYA: *“Qizil va Qora” faransuz yozuvchisi Stendalning eng mashhur romanlaridan biri hisoblanlanadi. Asarning bosh qahramoni Julien va Sorel – kambag'al bo'lib, u o'z iste'dodi va ma'lumotga chanqoqligi orqali yuqori doiralarga kirib boradi. Sevgisi va jamiyatdagi ikkiyuzlamachilik bilan to'qnashuvi uni fojiaga olib boradi. Roman insoniy xulq, ijtimoiy nohaqliklarga to'la.*

KALIT SOʻZLAR: *Stendal, “Qizil va Qora”, Julien, Sorel, Fransiya jamiyati, jamiyatdagi tabaqalashinish, XIX asr adabiyoti, psixologik roman, ijtimoiy tanqid.*

KIRISH

Fransuz adabiyotining XIX asrning yetuk namunalaridan biri – Stendalning “Qizil va Qora” romani inson ruhiyatini, jamiyatdagi tabaqalanish va shaxsiy erkinlik uchun kurash masalalarini chuqur yoritgan asarlardan biridir. 1830-yillarda yozilgan bu roman, inqilobdan keyingi Fransiya jamiyatning murakkab ijtimoiy-siyosiy muhitini tasvirlab, bosh qahramon Jyulen Sorel obrazi orqali yosh avlodning orzu-umidlari, ichki ziddiyatlari va jamiyat bilan to'qnashuvi kabi muommalarni ko'taradi.

“Qizil” kamtarlik, “Qora” esa ruhoniylilik ramzi sifatida, roman ichidagi ramziy ma'noni chuqurlashtirib, insonni insoniy qadriyatlar ustidan o'ylashga undaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Stendalning “Qizil va Qora” romanida asosiy g'oya – insonning jamiyatdagi o'z o'rnini topish yo'lidagi kurashi va axloqiy qarama-qarshiliklaridir. Muallif XIX



asr boshlaridagi Fransiya jamiyatining ikkiyuzlamachiligi, tabaqaviy bo'linishlari, mansabparastlik va soxta dindorlikni keskin tanqid qiladi. Asarda shaxsiy orzu bilan ijtimoiy to'siqlar o'rtasidagi ziddiyatlar chuqur ochib berilgan.

Julien – iste'dodli, bilimga chanqoq, lekin o'zini jamiyatda namoyon eta olmayotgan yosh yigit. U kamtorona oiladan chiqqan bo'lsada, hayotda ko'proq narsa qilishni istaydi. Uning harbiy yoki ruhoniylar yo'ldan borishi – bu Fransiya jamiyatida muvaffaqiyatga erishish yo'llarining timsolidir. (“Qizil” harbiylar, “Qora” ruhoniylar rangi). Julien ichki kechinmalari, g'ururi, orzulari va ularga erishish yo'lida qilgan xatolari – insoniy murakkabliklarning yaqqol ifodasidir. U nafaqat tarixiy sharoit, balki o'z nafsining qurboni hamdir. Madom de Renel – Julianning birinchi sevgisi, mehribon va halol ayol. U mehr va pokiza tuyg'ularni anglatadi. Matilda de la Mole – yuqori tabaqadan chiqqan, mag'rur vamurakkab xarakterli ayol. U Julien uchun ijtimoiy zinapoyadagi ayollarning o'rni, sevgi va ehtiroslar o'rtasidagi ziddiyatlarni ko'rsatadi.

Stendal realizm uslubida yotadi. U inson ruhiy holatlarini chuqur tahlil qiladi, siyosiy va ijtimoiy masalalarga real yondashadi. Roman ko'plab ichki manologiyalar, psixologik tafsilotlar va o'tkir ijtimoiy tahlillar bilan boyitilgan.

Garchi asar XIX asrda yozilgan bo'lsada, undagi mavzular – adolat izlash, murtaba va orzular yo'lida kurashish, jamiyatdagi nohaqlik – hozirgi kun uchun ham dolzab.

Julien Sorel timosilida har bir inson o'z hayot yo'lini topishga urinishini ko'rish mumkin.

MUHOKAMA

“Qizil va Qora” – bu oddiy bir insonning yuqori jamiyatga ko'tarilish orzusi, ichki qarama-qarshiliklari va hayotdagi sinovlari haqida hikoya. Asarda bosh qahramon Julian Sorel har tomonlama idealistik bilimdon va fidokor yigit sifatida gavdalanadi. Lekin u jamiyatdagi parastlik, ikkiyuzlamachilik, axloqiy buzuvchilik kabi muammolar bilan to'qnashadi va o'zining asl yuzini ko'rsata boshlaydi. Julianning hayotga bo'lgan intilishi – qadrlashga loyiq. U ilm orqali jamiyatda o'z o'rnini



topmoqchi bo'ladi. Biroq bu yo'ldagi hiyla, yolg'on va maqsad yo'lida barcha vositalarni oqlash tamoyili uni halokat sari yetaklaydi.

Roman bugungi kunda ham dolzarb. Hozirgi yoshlar ham ko'pincha o'z hayotlarida Julian Sorel kabi muammolarga duch keladilar: orzu va manfaat to'qnashuvi. Shu bois asar nafaqat tarixiy, balki ma'naviy ilm axloqiy jihatdan ham muhim hisoblanadi. Boshqa tomondan, Stendal jamiyatdagi tabaqalanish va adolatsizlikni tanqid qiladi.

XULOSA

“Qizil va Qora” – inson ruhiyatining chuqur tahlili, ijtimoiy muammolar va shaxsiy fojealarni o'zida mujaasam etgan buyuk asar. Bu asar nafaqat faransuz adabiyotining balki butun jahon adabiyotining durdonalaridan biri. Stendal bu asari orqali insonning ruhiy kechinmalari, ijtimoiy bosimlari va hayotiy tanlovlari haqida chuqur fikr yuritish mumkin.

Muallif asari bejiz “Qizil va Qora” deb nomlanmagan. “Qizil” bu shijoatli yoshlik, “Qora” – maqsadga yetish uchun hiyla, nayrang bilan erishiladigan cho'qqi. Asar mutoalasi davomi hammamiz shu ikki yo'ldan birini tanlaymiz. Bu esa kelgusi hayotimizga daxl qilmay qolmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rlizov B.G. “Stendal badiiy ijodi”. “Badiiy adabiyot”. L. 1978-yil
2. Stendal “Qizil va Qora”. “Haqiqat”. M. 1959-yil
3. Timasheva O.V. Stendal. M. 1983 yil
4. Frid J. “Stendal: hayot va ishning konturi”. “Badiiy adabiyot” M. 1967-yil
5. Esanbayeva R.M. Stendal va Dostoevskiy “Qizil va Qora”, “Jinoyat va jazo” romanlarining tipologiyasi. 1991-yil